

Mahliyo Sharofutdinova Nishonboy qizi
Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur tezisda hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining umumta'lim maktablarida qo'llash, bu usulning ta'lif sifati va samaradorligini oshirishga ta'siri; o'qituvchi, o'quvchi, o'quvchilar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, hamfikrlik va birdamlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lif oluvchining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, sahs sifatida namoyon bo'lishi uchun katta imkoniyatlar eshigini ochishi to'g'risida fikrlar bildirildi.*

Kalit so'zlar: *o'qituchi, o'quvchi, guruhi, jamoa, bilim, ko'nikma, o'quv faoliyati shakllari.*

Hamkorlikda o'qitish o'qituvchining ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka o'quvchi hamda butun sinf bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan bирgalikda, o'quvchilarning ham o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalgalashdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir [3]. Hamkorlikda o'qitish tushunchasining zamonaviy ta'lif texnologiyalariga kirib kelishiga R.Slavin (1990), R. Jonson, D. Jonson (1987), SH. Sharon (1988) kabi olimlar katta hissa qo'shganlar. Ta'lif texnologiyasining bu turi yaratilishidan ko'p o'tmay jadal rivojlandi va dunyo bo'y lab keng tarqaldi. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi amaliyotda ijobiy natija bera boshlaganidan so'ng, XX asr oxirlarida Buyuk Britaniya, Yaponiya, Isroil, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya kabi rivojlangan mamlakatlar ta'lif tizimida ham keng qo'llanila boshlandi.

Amerika olimlari tomonida ishlab chiqilgan texnologiyada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosiy maqsad etib belgilangan bo'lsa, Isroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash va loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishga ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Ahamiyatlisi shundaki, yuqorida hamkorlikda o'qitish texnologiyalari turlari bir-birini rad etmaydi, aksincha, didaktik jihatdan boyitadi, to'ldiradi va bir birini taqazo etadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari dunyo tajribasida o'z samarasini berib, keng qo'llanila boshlanganidan so'ng, yurtimizdagи ta'lif muassasalariga ham tatbiq qilinishi yo'lga qo'yildi. 2017 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning PF-4947 sonli farmoni bilan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi tasdiqlandi [1]. Ushbu xarakat strategiyaning to'rtinchи ustivor yo'nalishi bo'lgan "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" da "Umumiy o'rta ta'lif sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish"ga bag'ishlangan alohida band kiritilganligi ham bu yo'nalish rivojiga berilayotgan alohida e'tiborni anglatadi.

O'qitish texnologiyasining ushbu turining boshqalaridan farqli jihat shundaki - u o'quvchilarda o'quv topshiriqlarini bирgalikda bajarish, hamkorlikda o'qish o'rganish, jamoa

bilan ishslash, o'zini jamoaning bir qismi sifatida his etish, mas'uliyatli bo'lish kabi hislatlarni rivojlantiradi. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi -o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi [2].

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asoschilaridan biri - R. Slavinning fikricha, bu metod bo'yicha dars jarayonini tashkillashtirishda o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Bu jarayonda o'qituvchidan o'quvchilarda tom manodagi hamkorlik, guruhning har bir a'zosi qo'lga kiritgan muvafaqqiyatdan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhitning vujudga kelishini ta'minlash talab etiladi. Mazkur texnologiya qo'llanilganida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi [5].

Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda hamkorlik texnologiyalarining o'qituvchi-sinf, o'qituvchi-kichik guruh, o'qituvchi-katta guruh, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi (juftlikda ishslash), kichik guruh-kichik guruh, kichik guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllari qo'llaniladi. Bu usullar o'quvchilarga shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish, imkoniyatlarini kengaytirish, ikki tomonlama axborot almashish, mustaqil hayotga tayyorlanish, turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida o'zaro ijobjiy munosabatlar o'rnatishda yordam beradi.

Umumta'lim fanlarini o'qitishda hamkorlik texnologiyalari samaradorligini ta'minlash uchun: o'quvchilarning dars mazmuniga ijodiy yondashuvi, dars jarayonidagi axborotlarni tahlil va tanqid qilish, o'z xulosalarini asoslash, bilimlarni yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llash, amaliy topshiriqlar bajarish uchun vaqtini ko'proq ajratish, hamkorlikda ishlayotgan guruh a'zolarining muvaffaqiyatga erishishlari uchun o'zaro ko'maklashuvini ta'minlash kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, o'quvchi, o'quvchilar guruhi, jamoa va jamoalararo o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi talabaning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, ta'lim oluvchilarning shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta ahamiyatga ega. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan interfaol metodlar ta'lim maqsadlarni amalgaga oshirishda samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Eng muhimi, o'qituvchilar hamkorlikda o'qitish metodini tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari lozim. Shuningdek, mazkur texnolohiyani qo'llashda o'quvchining yoshi, psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshadi. Bu esa ta'lim bilimdonlik, sezgirlik beruvchidan kasbiy mahorat, malaka, va intuisiyani taqozo etadi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947 sonli farmoni 2017 yil 7 fevralda <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. CoTHBongueBa AôgypaxMOHOB P. "TatnuM caMapagopnuruHH omupum Ba yKyB ^apaëHura ннновацнон TatnuM TexHonruanapuHH TarÖHK; этнм 3aМОН Tanaôugup".
3. MycnuMOB H.A., YcMOHÔoeBa M., MupconueBa M. "Ннновацнон TatnuM TexHonruanapu Ba negaroruK KOMneTenrauK" YKyB-ycnyÖHH Ma^Mya. Toshkent, 2016.
4. Usta-Azizova D. A., Mirzayeva Sh. R., Rahmonova Yo. R. "Ta'lim texnologiyalari" Toshkent, 2019.
5. Makhmudova D.M. Using Information Technology Tools In Mathematics Lessons For Teaching Future Teachers // International Journal of Scientific & Technology Research Volume 9, Issue 03, march 2020. - P. 4168-4171. ((3) Scopus)
[6.http://www.ijstr.org/final-print/mar2020/Using-Information-Technology-Tools-In-Mathematics-Lessons-For-Teaching-Future-Teachers.pdf](http://www.ijstr.org/final-print/mar2020/Using-Information-Technology-Tools-In-Mathematics-Lessons-For-Teaching-Future-Teachers.pdf)